

“O‘zbektelekom” AKning
2024-yil “27” -dekabrdagi
438-son buyrug‘iga 1-ilova

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining
barqaror rivojlanish borasidagi
SIYOSATI**

Toshkent

Mundarija

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining barqaror rivojlanish borasidagi.....	1
SIYOSATI.....	1
1 Umumiy qoidalar	3
2 Qo‘llash sohasi.....	3
3 Atamalar, ta’riflar va havolalar	3
4 Vazifalar.....	4
5 Barqaror rivojlanish tamoyillari	4
6 Kompaniyaning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari	6
7 Manfaaddor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik.....	8
8 BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan tarafdorlik.....	9
9 Barqaror rivojlanish borasidagi hisobot tamoyillari.....	9
10 Javobgarlik	10

1 Umumiy qoidalar

1.1 “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya)ning barqaror rivojlantirish borasidagi siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat) O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga, Kompaniyaning Ustaviga, Korporativ boshqaruv kodeksiga, Ichki nazorat to‘g‘risidagi nizomga va Kompaniyaning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2 Siyosat Kompaniyaning barqaror rivojlanish borasidagi faoliyat yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Ushbu Siyosatning joriy etilishi quyidagi vazifalarni hal etishga ko‘maklashadi:

- markazlashtirilgan boshqaruv tizimi uchun asosni shakllantirish;
- Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) sohasidagi amaliyotni kengaytirish va takomillashtirish, ijtimoiy va tabiatni muhofaza qilish masalalariga mas‘uliyatli yondashuvni ilgari surish, korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotini joriy etish;
- xalqaro standartlarga muvofiq nomoliyaviy hisobotni joriy etish orqali faoliyatning shaffofligini ta‘minlash.

1.3 Mazkur Siyosat tasdiqlangan kundan boshlab amalga kiritiladi.

1.4 Kompaniya ushbu Siyosatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro standartlardagi o‘zgarishlarga muvofiq doimiy ravishda yangilab boradi.

2 Qo‘llash sohasi

2.1 Siyosat Kompaniyaning barcha filiallari va tarkibiy bo‘linmalariga, Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan barcha xizmat ko‘rsatish jarayonlari va boshqa faoliyat turlariga tatbiq etiladi.

2.2 Mazkur Siyosat qoidalari Kompaniya rahbariyati tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda Kompaniya faoliyatini rejalashtirishda hisobga olinadi.

3 Atamalar, ta‘riflar va havolalar

3.1 Ushbu Siyosatda quyidagi atamalar va ta‘riflardan foydalanilgan:

ESG (Environmental, Social and Corporate Governance) - bu atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy rivojlanish va korporativ boshqaruv sohasida barqaror rivojlanishning xususiyatlari, mezonlari va standartlari yig‘indisi bo‘lib, Kompaniya ularni boshqaruv va investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida hisobga oladi.

Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik - kelishilgan natijalarga erishish maqsadida qaror qabul qilishda manfaatdor tomonlarni o‘z faoliyatiga jalb qilish va ularning fikrlarini hisobga olish uchun Kompaniyada amalga oshiriladigan jarayonlar.

Manfaatdor tomonlar - Kompaniya faoliyati natijalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi va/yoki Kompaniya tomonidan o‘ziga ta‘sir ko‘rsatuvchi jismoniy va/yoki yuridik shaxslar yoki shaxslar guruhi.

Nomoliyaviy hisobot - barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy rivojlanish va korporativ boshqaruvning barcha muhim masalalari bo‘yicha Kompaniya faoliyatining maqsadlari, yondashuvlari va natijalarini aks ettiruvchi ma‘lumotlar va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar yig‘indisi.

Atrof-muhit - tabiiy muhitning tarkibiy qismlari, tabiiy va tabiiy-antropogen obyektlar, shuningdek, antropogen obyektlar majmuyi.

Faoliyat hududi - Kompaniya o‘z faoliyatini amalga oshiradigan ma’muriy-hududiy birliklar.

GRI standartlari - Global Reporting Initiative (“Hisobot bo‘yicha global tashabbus”) xalqaro tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan nomoliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun yagona standartlar va tavsiyalar.

Barqaror rivojlanish - faoliyatning halolligi va ijtimoiy javobgarligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xavfsizligi, ekologik tozaligi va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan uzluksiz texnologik yangilash va qayta jihozlash tamoyillarini qo‘llash orqali barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlari muvozanatini saqlagan holda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi maqsadlariga erishish.

BMT BRM – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yer sayyorasining farovonligini yaxshilash va uni himoya qilish uchun BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari.

3.2 Kompaniya siyosati va faoliyati uni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solingan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro hujjatlarni hisobga oladi.

4 Vazifalar

4.1 Ushbu Siyosatning asosiy vazifasi Kompaniyaning barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining umumiy tamoyillarini belgilashdan iborat bo‘lib, Kompaniya ularga amal qilishi lozim.

5 Barqaror rivojlanish tamoyillari

5.1 Ochiqlik, hisobdorlik, shaffoflik, axloqiy xulq-atvor, manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hurmat qilish, inson huquqlariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, shaxsiy namuna - Kompaniyani barqaror rivojlantirish sohasidagi tamoyillar hisoblanadi.

5.2 Tamoyillarni oshkor qilish:

Ochiqlik - biz uchrashuvlar, muhokamalar va muloqotlarga ochiqmiz: biz manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, Kompaniya va manfaatdor tomonlar manfaatlari o‘rtasidagi huquqlar va muvozanatga rioya qilishga asoslangan uzoq muddatli hamkorlikni qurishga intilamiz.

Hisobdorlik - biz iqtisodiyotga va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatilishi uchun hisobdorligimizni anglaymiz; biz aksiyadorlar va investorlar oldida Kompaniyaning qiymati o‘sishi va uning uzoq muddatli davrda barqaror rivojlanishi uchun javobgar ekanligimizni anglaymiz; biz resurslarga (jumladan, energiya, xomashyo, suvga) ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, yuqori unumli, energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish orqali o‘z faoliyatimizning atrof-muhitga va Kompaniyaga salbiy ta’sirini minimallashtirishga intilamiz; biz barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan xizmatlarni targ‘ib qilish majburiyatini zimmamizga olamiz; biz davlat budjetiga soliqlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa yig‘imlarni to‘laymiz; biz rivojlanish strategiyasi va imkoniyatlari doirasida ish yaratamiz; biz o‘z strategiyamiz va mavjud moliyaviy imkoniyatlar doirasida faoliyat yuritayotgan hududimizni rivojlantirishga ko‘maklashishga intilamiz; biz mulohazali va oqilona qarorlar qabul qilamiz va buni har bir darajada, mansabdor shaxs

darajasidan tortib, to xodimlargacha bo‘lgan ko‘lamda amalga oshiramiz; biz resurslardan tejamkorlik va mas‘uliyat bilan foydalanishga, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etishga intilamiz; bizning mahsulotlarimiz, tovarlarimiz va xizmatlarimiz qonun hujjatlarida belgilangan iste‘molchilarning sog‘lig‘i va xavfsizligi standartlariga javob berishi va tegishli sifatga ega bo‘lishi kerak; biz mijozlarimizni qadrlaymiz.

Shaffoflik - bizning qarorlarimiz va harakatlarimiz manfaatdor tomonlar uchun aniq va shaffof bo‘lishi kerak. Biz maxfiy axborotni himoya qilish me‘yorlarini hisobga olgan holda qonun hujjatlarida va bizning hujjatlarimizda nazarda tutilgan ma‘lumotlarni o‘z vaqtida oshkor qilamiz.

Axloqiy xulq-atvor - qarorlarimiz va harakatlarimiz zamirida hurmat, ochiqlik, jamoaviy ruh va ishonch, halollik va adolat kabi qadriyatlarimiz yotadi.

Hurmat - biz manfaatdor tomonlarning qonunchilikdan, tuzilgan shartnomalardan yoki bilvosita ishbilarmonlik munosabatlari doirasida kelib chiqadigan huquq va manfaatlarini hurmat qilamiz.

Inson huquqlariga rioya qilish - biz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan inson huquqlariga rioya qilamiz va ularga rioya qilishga ko‘maklashamiz; biz bolalar mehnatidan foydalanishni qat’iyan qabul qilmaymiz va taqiqlaymiz; xodimlarimiz - bizning asosiy qadriyatimiz va asosiy resursimiz, ularning professionalligi va xavfsizligi bizning faoliyatimiz natijalari va investorlar uchun yaratiladigan qiymat bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun biz mehnat bozoridan professional nomzodlarni ochiq va shaffof asosda jalb qilamiz va o‘z xodimlarimizni meritokratiya tamoyili asosida rivojlantiramiz; xodimlarimizning mehnat xavfsizligi va muhofazasini ta‘minlaymiz; sog‘liqni saqlash dasturlarini o‘tkazamiz va xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlaymiz; xodimlarni rag‘batlantirish va rivojlantirishning samarali tizimini yaratamiz; xodimlar uchun sharoit yaratamiz va ish vaqtiga oid me‘yorlarga rioya qilamiz; korporativ madaniyatni rivojlantiramiz.

Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik - korrupsiya bizning aksiyadorlarimiz, investorlar, boshqa manfaatdor tomonlar va umuman jamiyat uchun Kompaniya tomonidan yaratilgan qiymatni buzadi; biz barcha manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlikda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlikni e‘lon qilamiz. Korrupsiyalashgan ishlarga jalb etilgan mansabdor shaxslar va xodimlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishdan bo‘shatiladi va javobgarlikka tortiladi; Kompaniyadagi ichki nazorat tizimlari, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va jinoyatlarga yo‘l qo‘ymaslik, ularning oldini olish va ularni aniqlashga qaratilgan choralarni o‘z ichiga oladi.

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik - manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq jiddiy buzilishlar Kompaniya obro‘sigacha putur yetkazishi, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning Kompaniyaga bo‘lgan ishonchga putur yetkazishi mumkin; mansabdor shaxsning yoki xodimning shaxsiy manfaatlari ular tomonidan o‘z lavozim, funksional majburiyatlarini xolisona bajarishiga ta‘sir ko‘rsatmasligi kerak; Kompaniya sheriklari bilan munosabatlarda tomonlar bir-biriga nisbatan halol, vijdonan, adolatli va sadoqatli harakat qilishlari shart bo‘lgan eng ishonchli munosabatlarni o‘rnatish va saqlab qolishga umid qilib, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, uni aniqlash va bartaraf etish choralari ko‘radi.

Shaxsiy namuna - har birimiz har kuni o‘z xatti-harakatlarimizda, xulq-atvorimizda va qaror qabul qilishimizda barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishga hissa qo‘shamiz; boshqaruv lavozimlarini egallagan mansabdor shaxslar va xodimlar o‘zlarining shaxsiy namunalari bilan barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishga undashlari kerak.

6 Kompaniyaning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari

6.1 Tanlangan asosiy maqsadlarga muvofiq Kompaniya barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatni quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiradi:

6.1.1 Mavjud hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va farovonligiga ko‘maklashish

Kompaniya o‘z biznesi bo‘yicha mijozlar va mahalliy jamiyatlar oldidagi javobgarligini anglaydi. Shu munosabat bilan, Kompaniya faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u joylashgan hududlarda iqtisodiy o‘rishni qo‘llab-quvvatlash va aholining turmush sifatini yaxshilash hisoblanadi: yuqori sifatli infratuzilma obyektlarini yaratish, madaniy va sport tadbirlarini qo‘llab-quvvatlash, homiylik faoliyati, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, biznesni kengaytirish orqali ish o‘rinlarini yaratish.

6.1.2 Atrof-muhit muhofazasi

Kompaniya o‘z faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirishga va qurilishga ekologik yondashuv sohasida eng yaxshi amaliyotlarni joriy etishga intiladi, shu jumladan, binolardan foydalanish jarayonida energiya samaradorligi va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishning optimal darajasini hisobga olgan holda loyihalash, hududlarni obodonlashtirish, zamonaviy resurslarni tejaydigan muhandislik tizimlaridan va yanada ekologik xavfsiz materiallardan foydalanish amaliyotini qo‘llagan holda faoliyat yuritadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishni ta‘minlash doirasida Kompaniyaning strategik maqsadlari quyidagi rejalar va tashabbuslarni o‘z ichiga oladi, ularning bir qismi Kompaniya va filiallarda amalga oshirilmoqda:

- Kompaniya barcha milliy tavsiya va talablarni hisobga olgan holda, xalqaro standartlar bo‘yicha yagona ekologik menejment tizimini joriy etishni ta‘minlashni rejalashtirmoqda;
- Kompaniya o‘zining barcha foydalaniladigan ma‘muriy ahamiyatdagi obyektlarida, shu jumladan filiallarida ekologik xavfsizlikni ta‘minlaydi;
- Kompaniya barcha filiallarda tabiatni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini (shu jumladan xizmatlarni tashqi tashkilotlar tomonidan bajarishda) nazorat qiladi;
- Kompaniya o‘z obyektlarida, shu jumladan filiallarida statsionar manbalardan chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalarning hisobi yutirtilishini rejalashtirmoqda;
- Kompaniya hosil bo‘ladigan ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilarini hisobga olish va nazorat qilishni, ularning tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga muvofiq xavfsiz to‘planishini ta‘minlashni rejalashtirmoqda;
- Kompaniya doimiy ravishda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar va rahbarlarning malakasi oshirilishini, shuningdek, Kompaniyaning barcha xodimlarida ekologik ta‘lim darajasi oshirilishini ta‘minlaydi;
- Kompaniya avariya holati yuzaga kelishi va atrof-muhitga zarar yetkazilishi ehtimolini istisno qilishga qaratilgan ogohlantirish harakatlari kompleksini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- bundan tashqari, investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida Kompaniya atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiyaga salbiy ta‘sirning oldini olish, shuningdek, mavjud bo‘lgan hududlarda bunday xavflarni minimallashtirish maqsadida quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:
- uglerod chiqindilarini kamaytirishga ko‘maklashuvchi loyihalar va texnologiyalar amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlash;

- atrof-muhit va jamiyatga bo‘lgan ta’sirni kamaytirish uchun o‘zining investitsiya loyihalari bo‘yicha ekologik xavflarni boshqarish tizimini joriy etish;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qotilishi bilan bog‘liq xatlarni baholash va ularning oldini olish;
- xalqaro tashkilotlar shu jumladan moliya institutlari tavsiyalari bilan belgilangan ekologik va ijtimoiy javobgarlik prinsiplari doirasida, shuningdek, Kompaniyaning ijtimoiy va ekologik tavakkalchiliklarini boshqarish doirasida ichki normativ hujjatlar talablariga muvofiq loyihalarga qo‘yiladigan talablarga rioya qilish.

6.1.3 Barqaror rivojlanish talablariga javob beradigan yuqori sifatli mahsulotni ishlab chiqish

Kompaniya iste’molchilarning maqsadli guruhlarining u yoki bu segmentdagi mahsulotning sifatiga, funksional, hissiy va boshqa xususiyatlariga bo‘lgan asosiy talablariga javob beradigan, lekin resurslardan eng samarali foydalanishni nazarda tutadigan va inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan materiallar va texnologiyalarni qo‘llashni minimallashtiradigan mahsulotlarni kengroq joriy etish choralari ko‘radi.

6.1.4 Innovatsiyalarni joriy etish

Kompaniya biznes-jarayonlarini takomillashtirish, atrof-muhitga yukni kamaytirish uchun innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga ahamiyat beradi.

6.1.5 Ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlash

Xavfsizlikni ta’minlash va odamlar salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish Kompaniyaning barqaror rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish uchun Kompaniya quyidagi tamoyillarga asoslangan siyosatni amalga oshiradi: sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligi menejmenti tizimini o‘rnatish, amalga oshirish, qo‘llab-quvvatlash va doimiy ravishda takomillashtirish; barcha manfaatdor tomonlar, birinchi navbatda, Jamiyat xodimlari bilan muloqot uchun ochiqlik; epidemiyalar bilan bog‘liq xavflarni boshqarish.

6.1.6 Xodimlarni o‘stirish va jamoani saqlash

Xodimlarni boshqarish sohasida Kompaniya iqtidorli xodimlarni jalb qilish, rivojlantirish va saqlab qolish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan ishlarni olib boradi. Kompaniya xodimlarga kasbiy va karyera rivojlanishi uchun turli xil imkoniyatlar taqdim etiladi: raqobatli ish haqi, karyerani rejalashtirish, ish natijalari bo‘yicha mukofotlar, korporativ universitet asosida ta’lim va malaka oshirish dasturlari, uchinchi tomon ta’lim dasturlari, xarajatlarni birgalikda moliyalashtirishning turli xillari, shuningdek, nomoddiy rag‘batlantirishlar.

6.1.7 Teng imkoniyatlar taqdim etish

Kompaniya yosh, irqiy, etnik, jinsiy yoki boshqa belgilar bo‘yicha kamsitishga qat’iy qarshi kurashish siyosatiga amal qiladi va kasbiy imkoniyatlarini amalga oshirish faqat xodimning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog‘liq bo‘lishi uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiradi. Kompaniya o‘zaro hurmat va barcha xodimlarning Kompaniya hayotida faol ishtirokiga asoslangan korporativ madaniyatni qo‘llab-quvvatlashga intiladi.

6.1.8 Kadrlar salohiyatini yaratish

Kompaniya zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yosh mutaxassislarni shakllantirishni o‘z vazifasi deb biladi. Kompaniya soha uchun kadrlar salohiyatini yaratish maqsadida yetakchi oliy

ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi, talabalarni ishlab chiqarish amaliyotiga taklif qiladi, ma’ruzalar o‘qiydi va boshqa ta’lim-tarbiya tadbirlarida ishtirok etadi.

6.1.9 **Biznes yuritishda axloqiy yondashuvni joriy etish va targ‘ib qilish, korrupsiya va firibgarlikka qarshi kurashish**

Kompaniya o‘z faoliyatida qonunchilik talablariga, xalqaro standartlarga, shuningdek, Kompaniyaning ichki normativ talablariga amal qiladi; yetkazib beruvchilar va pudratchilarni halol tanlash tartib-taomilini ta’minlaydi; benuqson obro‘ga ega bo‘lgan va korporativ va ishbilarmonlik odob-axloqining qonunchilik va umume’tirof etilgan normalariga hamda barqaror rivojlanish sohasidagi boshqa talablarga rioya qiladigan kontragentlar bilan ishlashga intiladi; ichki audit va risklarni boshqarish tizimini amalga oshiradi, shuningdek, qonun va axloqiy me’yorlarga rioya etilishini nazorat qilish uchun korrupsiya, firibgarlik va korporativ axloqning buzilishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha yagona ishonch liniyasidan qo‘shimcha nazorat vositasi sifatida foydalanadi.

7 **Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik**

7.1 Kompaniya manfaatdor tomonlar bilan quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan holda samarali hamkorlik tizimini yaratishga intiladi: manfaatlarni hurmat qilish va o‘zaro manfaatli hamkorlik; Kompaniya faoliyatining barcha jihatlarini to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish; o‘zaro hamkorlikning muntazamligi va izchilligi; manfaatdor tomonlarning umidlarini aniqlash; ushbu majburiyatlarga rioya qilish; qaror qabul qilish jarayonida manfaatlar muvozanatiga rioya qilishga intilish; Kompaniya faoliyatining barcha asosiy sohalarida hamkorlik qilish.

7.2 Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va ularning Kompaniyaning joriy faoliyatiga va uning strategik rivojlanishiga ta’sirining ahamiyatini baholash amaliyotiga asoslanib, Kompaniyada quyidagi guruhlar va ularning manfaatlari ajratilgan:

- **davlat organlari:** O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilishga, Kompaniyaning mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi ustuvor strategiyalarni amalga oshirishdagi tegishli ishtirok etishiga manfaatdor tomonlar;

- **aksiyadorlar va kreditorlar:** Kompaniya aksiyadorlik qiymatining uzoq muddatli o‘lishiga bevosita manfaatdor tomonlar;

- **xodimlar va Kasaba uyushmasi:** mehnat qonunchiligi va mehnat shartnomasi normalarining to‘liq bajarilishini, xavfsiz va maqbul mehnat sharoitlari yaratilishi va qo‘llab-quvvatlanishini, ish haqi va ijtimoiy kafolatlarning raqobatbardosh darajasiga ega ish o‘rinlari taqdim etilishini kutadilar;

- **mijozlar:** ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati va uzluksizligi, xizmat ko‘rsatish standartlarini takomillashtirish va innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdor;

- **hamkorlar va yetkazib beruvchilar:** o‘zaro manfaatli hamkorlik, shaffoflik, qonun hujjatlari va Odob-axloq qoidalari bilan mustahkamlangan axloqiy me’yorlarga rioya qilish tamoyillariga asoslangan o‘zaro hamkorlikdan manfaatdor tomonlar;

- **raqobatchilar:** bozorda o‘z ulushini oshirishdan manfaatdor tomonlar;

- **xalqaro tashkilotlar:** xalqaro hamkorlikdan manfaatdorlikni kutuvchilar;

- **moliya institutlari (banklar):** erkin pul mablag‘larini joylashtirish va maxsus hisob raqamlariga xizmat ko‘rsatishdan manfaatdorlikni kutuvchilar;

- **aholi:** ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati, xizmatlarga tariflarning jozibadorligi, ishga

joylashish, xayriya yordami olish, sog‘liq xavfsizligiga manfaatdor tomon;

– **jamoat tashkilotlari va OAV:** mahalliy hamjamiyatning kutilmalari va xavotirlari to‘g‘risida jamoatchilikni yetarli darajada va o‘z vaqtida xabardor qilish, shaffoflikni oshirish, jamoat tashkilotlarining mustaqilligi ta‘minlash va ularning ekspert salohiyatini oshirishdan manfaatdor tomonlar.

7.3 Kompaniya uchun barcha manfaatdor tomonlar tinglanishi muhimdir. Shaxsiy va jamoaviy murojaatlar va shikoyatlarni tez va samarali hal qilish uchun Kompaniyada xabar qoldirgan har qanday shaxsni javob choralari va ta‘qibdan himoya qilishni kafolatlaydigan rasmiy aloqa kanallari mavjud:

– rasmiy veb-saytda | Uztelecom.uz | Kompaniyaning yuridik va joylashgan manzili, telefon raqamlari va elektron pochta ko‘rsatilgan.

7.4 Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlikka taalluqli barcha masalalar manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha alohida Siyosatda batafsil bayon etilgan.

7.5 Kompaniya manfaatdor tomonlarga aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha hisobotlarni taqdim etadi. Hisobotlar Uztelecom.uz rasmiy saytida e‘lon qilinadi.

7.6 Kompaniya ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha har yili hisobot taqdim etishni rejalashtirmoqda, bu hisobot o‘zining yillik hisobotida yoki boshqa jamoatchilikka taqdim etiladigan hujjatda alohida nashr sifatida joylashtiriladi.

8 BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan tarafdorlik

8.1 Barqaror rivojlanish siyosati, chora-tadbirlari va yondashuvlarini ishlab chiqishda Kompaniya Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning barqaror rivojlanish maqsadlariga, manfaatdor tomonlarning manfaatlariga va tarmoq xavflari va ta‘sirini baholashga asoslanadi. Manfaatdor tomonlarning asosiy guruhlarini, faoliyat yo‘nalishini va o‘z imkoniyatlarini hisobga olgan holda, Kompaniya BMTning barqaror rivojlanish ga qo‘shiladi va ulardan ba‘zilarini o‘zi uchun ustuvor deb belgilaydi.

8.2 Kompaniyaning barqaror rivojlanish sohasidagi asosiy maqsadlari tarkibi aniq o‘lchanadigan maqsadli ko‘rsatkichlarni takomillashtirish va shakllantirishga qarab o‘zgarishi mumkin.

8.3 Eng yaxshi amaliyotlar va xalqaro standartlar talablariga muvofiq, Kompaniya umumiy maqsadlar bo‘yicha BMT BRMga erishishga qo‘shgan hissasini baholaydi, uning natijalari Kompaniyaning nomoliyaviy hisobotida e‘lon qilinadi.

9 Barqaror rivojlanish borasidagi hisobot tamoyillari

9.1 Kompaniya xizmat, tijorat siri va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni himoya qilishni ta‘minlashni hisobga olgan holda barqaror rivojlanish to‘g‘risidagi hisobotni har yili tayyorlash majburiyatini zimmasiga oladi.

9.2 Barqaror rivojlanish to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashda Kompaniya GRI, SASB, IFRS S1 S2 nomoliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga amal qiladi (bugungi kunda Kompaniya tomonidan barqaror rivojlanish hisoboti GRI (Global Reporting Initiative) barqaror rivojlanish hisobotlari qo‘llanmasiga asoslanib tayyorlamoqda), shuningdek, Kompaniya O‘zbekistonning milliy qonunchiligi bialn tartibga solingan ESG ma‘lumotlarini oshkor qilish sohasidagi tavsiya va talablarni hisobga oladi.

9.3 Barqaror rivojlanish to‘g‘risidagi hisobot Kompaniya rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi va manfaatdor tomonlar e‘tiboriga korporativ veb-saytga joylashtirish orqali yetkaziladi, barqaror rivojlanish sohasidagi masalalar esa tegishliligiga ko‘ra Kompaniyaning Kuzatuv kengashi majlislari

kun tartibiga kiritiladi.

10 Javobgarlik

10.1 Kompaniya rahbariyati ushbu Siyosatda bayon etilgan tamoyillar va maqsadlarni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi. Kompaniya xodimlari Kompaniya va uning tarkibiy bo‘linmalarining tashkiliy tuzilmasiga, o‘z lavozim vazifalariga muvofiq ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirish uchun mas’ul etib tayinlanadilar.

10.2 Kompaniya ushbu Siyosatni doimiy ravishda takomillashtirishni ta’minlash zarur deb hisoblaydi va uni Kompaniyaning rivojlanish dinamikasiga muvofiq yangilash imkoniyatini nazarda tutadi.